

ISSN: 2545-0573

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

S. R. Egamberdiyeva

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent QarMII "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası

SH. M. Qudratova

QarMII Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar:

Kichik biznes, modernizatsiyalash, balans, foyda va zararlar, kapital, moliyaviy holat, transformatsion ishchi balans.

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarida hisob va hisobotni hozirgi holati, ularni takomillashtirish zaruriyati, xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning afzalliklari, yoʻnalishlari hamda ahamiyati ochib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Kirish. Butun dunyoda iqtisodiyotni xarakatlantiruvchi kuchi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) sohasini asosiy oʻrinni egallab kelmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, AQSH davlatlarida YAIMdagi KBXTning ulushi 50-60 foiz atrofida boʻlib, ushbu koʻrsatkich Oʻzbekistonda 2021 yakunida 54,9 foizni tashkil qilmoqda. KBXTni yanada rivojlantirishda investitsiyalarning oʻrni beqiyosdir. Mamlakatimiz hududlariga ajratilayotgan investitsiya miqdorini qanday taqsimlanayotganini statistik oʻrganish muhimdir.

Statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2022 yil 6 may holatiga respublikada faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 462834 tani tashkil qilgan. Bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 12,6%ga oshgan. 2022 yil yanvar oyida 51631dan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat koʻrsatayotgan jami 462834ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 156539tasi (33,8%) – savdo, 90313tasi (19,5%) - sanoat, 43410tasi (9,4%) - qurilish, 45897tasi (9,9%) - qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 32948tasi (7,1%) - yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasi, 18045tasi (3,9%) - tashish va saqlash, 10247tasi (2,2%) - axborot va aloqa sohasi, 8814tasi (1,9%) - sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish, shuningdek 56621tasi (12,2%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga toʻgʻri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng koʻpi savdoda 156539 ta, sanoatda 90313 ta, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida 45897 ta va qurilishda 43410 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmat koʻrsatishda 8814 ta, axborot va aloqada 10247ta hamda tashish va saqlashda 10247 ta tashkil etilgan [14].

Boshqa tarmoqlarning ham ulushida ijobiy oʻzgarishlarni koʻrish mumkin. Ushbu sohaning mamlakat

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'рни va roli katta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya-bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi"[5.3b.].

Moliyaviy xizmatlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish mamlakatimizga xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatini yanada oshiradi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizga bozor elementlari va xalqaro tajribalarning tadbiq etilib borilishi, barcha xo'jalik tarmoqlarini modernizatsiyalash negizida, ularni axborot ta'minotining asosi bo'lgan buxgalteriya hisobi va hisobotlarni tuzish hamda taqdim etishning takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Aynan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda buxgalteriya hisobi va xisobotini takomillashtirishning hozirgi holatini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, uning rivoji va yo'nalishlarini o'rgangan xorijiy olimlar: A.Marshall [9], Y.Shumpeter [8], V.Vales [11] lar tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi.

Korxonalar hisob siyosatining tashkiliy jihatlari to'g'risida iqtisodchi olimlar turlicha fikr berganlar. Jumladan, N. Jo'rayev quyidagilarni ta'kidlagan: «Hisob siyosatining tashkiliy tomoniga buxgalteriya hisobi xizmatining tashkiliy shakli, buxgalteriya hisobining tarkibi, hisobining markazlashish darajasi va aksiyadorlik jamiyatlaribo'linmalarini alohida balansga o'tkazish kabi masalalardir»[10].

S.R.Egamberdiyeva esa, "Bizningcha, innovatsion ishlab chiqarish jarayonlar samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga mos keladigan innovatsion hisob tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun xo'jalik subyektlari moliyaviy hisob bilan birgalikda albatta boshqaruv hisobini tashkil etishi va analitik ma'lumotlar bazasini yaratishlari lozim deb hisoblaymiz. Chunki aniq manzilli ma'lumotlarni yetkazib berish asosan boshqaruv hisobining vazifasi hisoblanadi." [13.].

S.Tashnazarov ilmiy tadqiqotida "Moliyaviy hisobotni boshqaruvning muhim dastagi sifatida modernizatsiyalash deganda, moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg'or usul va uslublar hamda takomillashgan hisobot shakllarini joriy qilish tushuniladi. ... Bizning fikrimizcha, dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg'or tajribasidan kelib chiqib, transformatsion ishchi balans tuzish amaliyotiga o'tishimiz kerak. Ishchi balans schyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o'tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval (registr) hisoblanadi." deb o'z fikrini bildirgan. [12.].

Ushbu moliyaviy hisobotlarni sifatli va xalqaro standartlarga mos holatda tuzish va taqdim etish uchun barcha hisob va hisobot jarayonlarini amaliy dasturlar paketiga asoslangan elektron shakllarini yaratish hamda chet ellikinvestor korxonalar ham to'siqsiz foydalana olishlari zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar urganilib mushohada qilingan. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Empirik tadqiqotning kuzatish, jamlash, guruhlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy xizmatlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish mamlakatimizga xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatini yanada oshiradi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ham ijtimoiy ham iqtisodiy soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga va ular uchun yanada qulay shart-sharoit yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitni yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash orqali, ushbu sektor O‘zbekiston iqtisodiyoti tuzilmasida yanada muhim o‘rin egallashida va tadbirkorlik subyektlarining eksportsalohiyatini yanada oshirishda mustahkam poydevor vazifasini o‘tamoqda”[4].

Buxgalteriya hisobi – mulkchilikning har qanday shaklidagi korxonada xo‘jalik faoliyatini yalpi, uzluksiz va hujjatlarga asoslangan holda aks ettirish tizimidir. Chunki u kunma-kun yuritiladi va barcha xo‘jalik hodisalari va jarayonlarini yalpi tarzda qayd etadi.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 20-son BHMS [6]. ishlab chiqilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini meyoriy asosda boshqarish tizimining bir qismi hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarida chuqurlashib borayotgan globalashuv jarayonlari umumtan olingan xalqaro meyorlar va standartlarga o‘tish hamda ularga amal qilishga bo‘lgan talablarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda «1 ta xalqaro konseptual asos, 29 ta Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (BHXS) va 17 ta Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va 33 ta standartlarga interpretatsiyalar»[15]. amaliyotga joriy qilingan.

1 –jadval. Moliyaviy hisobotning asosiy majburiy shakllari [12]

№	«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunda	MHXSlariga muvofiq holda taklifetiladi
1	Buxgalteriya balansi	Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot
2	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot	Foyda va zararlar hamda boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot
4	Pul oqimlari haqidagi hisobot	Pul oqimlari haqidagi hisobot
5	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot	Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot
	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar	Izohlar, hisob siyosatining qisqacha tavsifi va boshqa tushuntirishlar

Hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg‘or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masaladir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari»da keltirilgan asosiy tamoyillarga asosan hisob va hisobot ishlari shakllantiriladi:

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda buxgalteriya hisobni yuritadi va buxgalteriya (moliya) hisobotini taqdim etadi[1]” deb ta’kidlangan.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi xalqaro andozalari asosida 23 ta (BHMS) standarti buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, O‘zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo‘llashning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:


- MHXS alohida qoidalarini qo‘llash amaliyoti masalalari bo‘yicha mos keluvchi uslubiy ko‘rsatmalar va izohlar mavjud emasligi tufayli amaldagi va yangi standartlarni mutaxassislar tomonidan qabul qilish qiyinligi hamda axborot yetishmasligi; -O‘zbekistonda MHXSni qo‘llash

amaliyoti umumlashtirilgan tahlilining mavjud emasligi; -MHXS bo'yicha mutaxassislar va malakali kadrlar yetishmasligi; -MHXS bo'yicha hisob va hisobot yuritish avtomatlashtirilgan dasturlari, shuningdek, ularga xizmat ko'rsatish bahosining yuqoriligi.

Shu munosabat bilan MHXSni joriy etish, mamlakatimizda buxgalteriya hisobini isloh qilish, uni sifatli, obektiv, foydali va talab yuqori bo'lgan axborot yaratishning samarali vositasiga aylantirish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Axborotlardan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot axborotlariga qiziqishi ortib borishi sharoitida, uning ishonchliligini ta'minlash muammosini hal qilishda axborotning roli oshib boradi.

Milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish uchun, avvalo, BHMSlarni MHXSlarga moslashtirish zarur.

Buxgalteriya apparati va uning tarkibini belgilashda kichik tadbirkorlik subektlarda ishlab chiqarish faoliyatining hajmi va uning tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, buxgalteriya apparati va tarkibini tashkil qilishga korxonaning moliyaviy va investitsion faoliyati ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subektlaridagi buxgalteriya hisobini mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib tashkil qilish¹

Agar BHXSda qaysidir jarayon bo'yicha aniq aks ettirish tartibi yo'q bo'lsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari rahbariyati moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun foydaliroq bo'lgan ma'lumotni shakllantirish uchun hisob siyosatida o'z mulohazasini yuritib qaror qabul qilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqi kichik tadbirkorlik subektlariga ixtiyoriylik asosida beriladi.

Kichik biznes subektlarida tuziladigan boshlang'ich hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi, shuningdek hujjatlar aylanmasini amalga oshirish tartibi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga va «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risida»gi Nizom[7] ga muvofiq tartibga solinadi.

Hisobni soddalashtirilgan shaklda tashkil etish uchun kichik biznes subektlari xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar Rejasini tuzishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 5-moddasi « Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish» deb nomlangan moddaning ikkinchi xat boshida «Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari, shu jumladan kichik tadbirkorlik subektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi» deb ko'rsatilgan. Ushbu qonun talablari asosida 20-sonli BHMS [6]tasdiqlandi. Ushbu normativ hujjatlar asosida kichik biznes subektlari ixtiyoriy ravishda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklini yuritishlari mumkin. Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagilar[16] :

¹ muallif tomonidan tayyorlangan

- ✓ buxgalteriya hisobining oddiy shakli;
- ✓ buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.

Xulosa va takliflar. Buxgalteriya hisobi va hisobotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari tomonidan qonunchilik asosida belgilangan yagona uslubiyat asoslariga muvofiq yuritiladi, shuningdek hisobning soddalashtirilgan shaklida tashkil qilinishi uchun kichik korxonalar o‘zlarining moliyaviy xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi asosida mablag‘lar va ularning manbalari hisobini asosiy schyotlarda yuritish imkonini beruvchi va bu orqali hisob ma‘lumotlarining ishonchliligi ustidan nazoratni ta‘minlash imkonini beruvchi xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi schyotlarining qisqartirilgan ishchi rejasini tuzish huquqiga egadirlar.

Respublikamizda hisob tizimini isloh etishdagi olib borilayotgan ishlarni ijobiy baholagan holda aytish mumkinki bugungi kunda milliy hisobchilikni huquqiy bazasi to‘la ta‘minlandi. Hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab olindi. Kichik tadbirkorlik subektlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti, uni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini uslubiy muammolariesa haligacha to‘liq hal etilmagan.

Shu maqsaddan kelib chiqib quyidagi takliflar berildi.

1. Kichik tadbirkorlik subektlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti, uni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini tashkil etish kerak;
2. Kichik tadbirkorlik subektlarining buxgalteriya hisobini obekti sifatida quyidagilar qaralishi kerak:
 - Moliyaviy hisob obekti sifatida aktivlar va passivlar, daromad va xarajatlar (oshkor etiladigan umumlashgan ma‘lumotlari).
 - Boshqaruv hisobi obekti sifati ishlab chiqarish yoki ichki xo‘jalik hisobini elementlari, rejalashtirish, tahlil etish marketing va ichki nazorat obektlarini elementlari.
3. Kichik tadbirkorlik subektlari hisob siyosatining elementlari va Moliyaviy hisobotni konseptual asoslari xalqaro standartlarga mos ravishda tarkiblanishi va tasniflanishi kerak;
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida buxgalteriya hisobi va hisobotni yo‘lga qo‘yishning quyidagi muammolari hal etilishi kerak:
 - ✓ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida moliyaviy hisobotni yo‘lga qo‘yish shakllarini tuzib chiqish;
 - ✓ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida moliyaviy hisobotlar elementlarini baholashni belgilash;
 - ✓ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida moliyaviy hisobotning muhim tamoyillarini tavsiflash h.k.

Har qanday iqtisodiy obektni boshqarish faoliyatining asosini murakkab qurilishga ega bo‘lgan axborot tizimlari tashkil qiladi, ularning faoliyat turi va korxonalar, tashkilot, firmaning ko‘lamiga bog‘liq.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida moliyaviy hisobotlarni tuzishda, uning ma‘lumotlarini audit qilishda jahon mamlakatlarida qo‘llanilayotgan tizimlar bugungi kunda ilg‘or hisoblanadi va ularni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, ularni milliy amaliyotga qo‘llash kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida moliyaviy hisobotni tuzish vaqtini kamaytiradi, hisobot ma‘lumotlaridagi ko‘rsatkichlarning ishonchlilik darajasini oshiradi, va albatta, buxgalterning ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Buxgalteriya xisobi to‘grisida”gi Qonun 2016 yil 13 aprel.

2. “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-101-son Farmoni 2022 yil 8 aprel
3. SH.M.Mirziyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // Xalq so‘zi. 16.01.2017y.
4. Mirziyoyev SH.M. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori Toshkent shahri, 2018 yil 8 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga *Murojaatnomasi* 28.12.2018yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2013 yil 16 iyuldagi 70-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» nomli 20-BHMS.
7. «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risida»gi Nizom O‘zR MVning 2003 yil 23 dekabrda 131-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zR AVda 2004 yil 20 yanvarda 1297-son bilan ruyxatga olingan.
8. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskoy razvitiy. - M.: Progress, 1985. –
9. Marshall A. Prinsipi politicheskoy ekonomii. - M.: Progress, 1993. –
10. Jo‘rayev N., Bobojonov O., Abduvoxidov F., Sotivoldiyeva D. Moliyaviy va boshkaruv xisobi. Darslik.TDIU. T.: 2007. -12 b.
11. Vales W.J. Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W.J. Wales, V.K. Gupta, F.T. Mousa // International Small Business Journal. - 2013. - №31(4). - P. 357-383.)
12. Tashnazorov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2019.
13. Rayimovna, E. S. (2022). Issues of Compliance of Financial Statements with International Standards. Journal of Corporate Finance Management and Banking System (JCFMBS) ISSN: 2799-1059, 2(02), 1-10.
14. Korxonalar va tashkilotlar 2022-yil 1-6 may xolatiga.
<https://stat.uz/uz/nashrlar/3656-o-zbekistonda-kichik-tadbirkorlik#>
15. <https://www.ifrs.org/ua/mezhdunarodny-e-standarty-finansovoj-otchyotnosti/>; www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/
16. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining “Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi nizom. 2008 yil 21 yanvarda, 15-bo‘lim.